

ORTALABKI
MAHABBAT
KARAVATERASI
YOZ DAVRI

TAYYORLOV
GURUH

“TASDIQLAYMAN”

_____-MTT direktori

**Yoz davri tayyorlov guruhlariga ertalabki suhbat kartotekasi faoliyatlari uchun
ISH REJA**

HAFTA KUNLARI	MAVZU
IYUN	
1-hafta	“Qushlar bizning do‘stimiz”
2-hafta	“Halollik va o‘g‘rilik” haqida suhbat.
3-hafta	“Ko‘cha qoidalari”
4-hafta	“Yashil do‘stlar” suhbat
IYUL	
1-hafta	“Halollik” ertagini o‘qib berish
2-hafta	“Ertaga bayram”
3-hafta	“Bugun bolasiz, ertaga askar bo‘lasiz”
4-hafta	“Mening oilam”
AVGUST	
1-hafta	“Yo‘l qoidalarini o‘rganamiz”
2-hafta	“O‘zbekiston davlati” suhbat
3-hafta	“O‘zbekiston timsollari” suhbat
4-hafta	Mening huquq va burchlarim mavzusida suhbat

Mavzu: "Qushlar bizning do'stimiz"

Suhbatning maqsadi: Maktabgacha yoshdagi bolalarga O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining "Fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga majburdirlar? Mazmunidagi 50-modda, " Yer, yer osti boyliklari, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi, hamda boshqa tabiiy zahiralari umummilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidadir" mazmunidagi 55-moddalari asosida suhbat o'tkazish. Suhbat orqali bolalarda tabiatni asrash va avaylash hissini uyg'otish. Bolalarda tabiatni asrash va avaylash hissini uyg'otish. Bolalarga qushlar insonlar uchun foydali ekanini uqtirish, qushlarga g'amxo'rlik qilish, ularni asrash hissini tarbiyalash.

Kutilayotgan natija: Bolalarda tabiatni asrash va avaylash hissini uyg'onadi. Bolalarda tabiatni asrash va avaylash hissini uyg'otish. Bolalarda qushlarga g'amxo'rlik qilish, ularni asrash hissi tarbiyalanadi.

Kerakli jihozlar: Bahorda uchib keladigan qushlarning surati. Qushlarning inlarining suratlari.

Suhbatning borishi: Tarbiyachi — bolalar bahor kelishi bilan uchib kelgan qushlarni ko'ramiz-a! Qanday qushlarni kuzatdik? Kecha esa hammamiz maydonchada o'sgan daraxt shoxida yashayotgan poloponlarning chug'urchug'urini ko'rdik. Hozir qushlarning jo'ja ochish mavsumi boshlangan. Bunda ularni asrash, g'amxo'rlik qilish va ko'riqlashni unutmaslik kerak. Bunday yordamga muhtoj bo'ladilar. Biz qushlarga qanday yordam berganimizni bolalar o'z fikrini bildiradi:

- qushlarga in qurib berish;
 - don va suv berish;
 - odobsiz bolalar qushlarni tosh yoki qirorta narsa otishsa, himoya qilishimiz, ularni odobga chaqirishimiz kerak.
- Men hozir sizga bog' qurish haqida qanday yordam bergani haqida hikoya o'qib beraman. Diqqat bilan tinglang.

Umarbekovning "Mehr" hikoyasi

Har kuni saharda, hali quyosh chiqmagan vaqtda chiqib o'tish odatim bor. Ko'chaga chiqaman, anhor labida aylanaman, keyin bog'ga boraman. Bir kuni bog'da aylanib yurgan edim, katta sadaning tagida qushni ko'rib qoldim. U supurgisiga iyagini tirab, homush turardi. Yana bir qush bo'lsa, Allanarsa jon holatda chirqillardi. Cholning qulog'i shunda qushni ko'rdi, goh kishini seskantirib chirqillaydi. Ancha quloq solib turdim, qushni qanday joyidan qimirlamasdi.

Ko'zlari o'ychan. Bir mahal supurgisini tashladi-yu, qushning o'z qo'lidagi ekinning ichini cho'kkalab olib tita boshladi. Qancha vaqt o'tib ketgan, qush o'rnidan turganda, qo'lida hali shundoq jish qush bolasi bo'lgan. U qushni kichkina tumshuqchasini katta-katta ochib chirqillardi. Cholning quloq solib qushchani erkalagan bo'ldi, tili bilan avaylab og'zini ochib ho'llashni boshladi. Keyin sadaga qaradi. Men ham qaradim. Sadaning odam bo'yi keladigan bog'ida

qandaydir qushning ini bor edi. Chol shunga tikilib qoldi. Qushcha hamon chirqillardi. Chol bir oz o'ylanib turgach, qo'lini cho'zib uni iniga qo'ydi, qushchaning ovozi tindi. Chol jilmaydida, supurgini yelkasiga tashlab, bog'ning ichkarasiga kirib ketdi. Men uning orqasidan qarab qoldim.

Tarbiyachi:

1. Hikoya mazmuniga tushundingizmi?
2. Bog' qorovuli daraxt tagida nima qilib turgan edi?
3. Nima chirqillardi?
4. Chol nima qildi?
5. Chol nima topib oldi?
6. Qushchani qaerga qo'ydi?

Tarbiyachi bolalar javoblarini umumlashtiradi: ko'rdingizmi bolalar, bog' qoravuli qush bolasining hayotini saqlab qoldi. Siz nima deb o'ylaysiz, bog' qorovuli to'g'ri ish qildimi? Bundan buyon biz ham qushlarga yordam beramiz, ularga ozor bermaymiz. Ayniqsa ular bolalaganda ularning inini buzmaymiz, inlariga tosh otmaymiz. Qushlar bizning do'stimiz. Ularni asrab avaylash, ularga g'amxo'rlik qilish bizning vazifamiz. Kelinglar, hozir "Mushuk va chumchuqlar" o'yinini o'ynaymiz. O'yinda bolalar rag'batlantiriladi.

Bolalar bilimlarini mustahkamlash uchun savollar:

Bolalar, bahorda o'lkamizda uchib kelgan qanday qushlarni kuzatdik?

Biz qushlarga qanday yordam berdik?

Sizga qanday hikoya o'qib berdim?

Bog' qoravuli qush bolasining hayotini qanday saqlab qoldi?

Suhbat natijasida bolalarda rahmdillik, g'amxo'rlik, mehribonlik kabi hissiyotlar vujudga keladi.



Mavzu: «Halollik va o'g'rilik» haqida suhbat.

Suhbat maqsadi: Maktabgacha yoshdagi bolalarga O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining "Barcha fuqarolar Konstitutsiyada belgilab qo'yilgan burchlarni o'zlashtirish" mazmunidagi 47-moddasi asosida suhbat o'tkazish. Suhbat bolalarga halol odamlar haqida so'zlab, halollik tushunchasiga izoh berish.

Bolalarda halollik sifatini axloqiy fazilatlarni tarbiyalash. Hikmatli so'zlardan insoniyatning asar g'oyasini bolalar qalbiga yetkazish va ma'naviy tarbiya berishni ta'kid etish. O'zgalarning narsalarini ruxsatsiz olmaslik kerakligi haqida tushuntirish, birovning mulkiga hiyonat qilish kabi nojo'ya harakatlarni o'zlashtirish, o'g'rilik esa og'ir jinoyat ekani, birovning mulkini o'zlashtirish ruxsatsiz qolmasligini tushuntirishga harakat qilish. Inson o'z maqsadlarini mehnati bilan erishmog'i lozimligini tushuntirish. Halol, poklik, rostgo'ylik mehnat hayotning garovidir, degan iborani bolalar ongiga singdirish.

Kutilayotgan natija: Bolalar o'zgalarning narsalarini ruxsatsiz olmaslik kerakligi haqida tushunchaga ega bo'ladi. Birovning mulkini so'ramasdan olish o'g'rilik hisoblanishi, inson o'z maqsadlarini mehnat bilan erishmog'i lozimligini tushunadilar.

Suhbatning borishi: Bolalar men sizga ertak, hikoyalar orqali nima halol odam ekan, halol mehnati bilan kun kechirar ekan degan gaplarni eshitgansiz. Halollik, halol odam deganda kimni tushunasiz? Rostgo'ylik o'g'rilik qilmaydigan odamni tushuniladi.

To'g'ri, birovning haqqiga hiyonat qilmaydigan, o'z mehnati bilan haqqiga yetadigan to'g'ri, rostgo'y odamlarni halol odamlar deyiladi. Suhbatda hikmatli so'zda shunday deyilgan: «Halol rizq topish har bir inson uchun vojibdir».

Buning ma'nosi shuki, birovning narsasiga tegma, birovning haqqiga tegma, o'g'rilik qilma, yolg'on so'zlama. Nima olishni istasang o'z mehnating bilan topgan, pulingga ol. Birovning haqqiga tegma, halol mehnat bilan odam o'z maqsadiga erishadi. Nopok yo'l bilan topilgan rizq yaxshilikka olib bormaydi: Bugun men sizga Ravshan degan bola haqida o'qib bermoqchiman. Diqqat bilan eshitsangaz. Ravshan degan bola qanday bola ekan? U to'g'ri ish qildimi? Hozir shularni bilib olasiz.

Tarbiyachi asarni ifodali o'qib beradi:

Ravshan qaerda aylanib yurgan edi?

U qurilishda nima ko'rib qoldi?

Uning hayoliga qanday fikrlar keldi?

Shu fikrlar bilan nima ish qiddi?

Ravshanning bog'cha opasi nima degan edi?

Ravshan nima ish qildi?

To'g'ri ish qildimi?

To'g'ri, bolalar, Ravshan to'g'ri ish qildi. G'isht davlat mulki, qurilishga qarashli. Agar Ravshan do'stlari bilan bitga-bitta g'ishtni uyiga olib ketganda, ularning bu nojo'ya harakati o'g'rilikka olib kelar edi. O'g'rilik eng ogar jinoyat.

Davlat yoki begonalar mulkini o'g'rilagan odam jazosiz qolmaydi.

Bu harakati bilan Ravshan ota-onasini mahalla oldida, odamlar orasida uyaltirib qo'ygan bo'lar edi, oilasining sha'niga dog' tushirgan bo'lar edi.

Bundan buyon biz ham Ravshanga o'xshagan yaxshi, odobli bola bo'lamiz. Bog'chamizdan uyimizga o'yinchoqlarni cho'ntagimizga solib olib ketmaymiz. Guruhimizdagi barcha o'yinchoqdar davlatniki. Ularni asrab-avaylab o'ynab, keyin joy-joyiga qo'yib qo'yamiz. Bu o'yinchoqlarni sizning ukalaringaz ham bog'chaga kelganda o'ynashadi. Hozir hammamiz o'rnimizdan turib, mana bu g'ishtchalar-u kubiklardan katta bir uy quramiz. Bolalar kurilmalar asosida o'ynaydilar.

Bolalar bilimlarini mustahkamlash uchun savollar:

Qanday odamlarni halol odamlar deymiz? (*o'z mehnati bilan maqsadiga yetadigan to'g'ri, rostgo'y odamlarni halol odamlar deyiladi*)

Ravshan degan bola haqidagi hikoyada Ravshan degan bola qanday bola ekan?

U to'g'ri ish qildimi?

Siz bog'chada o'yinchoqlarni qanday o'ynaysiz?



veb-saytimiz: Zokirjon.com

**Zokirjon.com veb-sayti orqali o'zingiz uchun
kerakli ma'lumotlarni yuklab oling.**

[Zokirjon Admin](http://Zokirjon.com) bilan

**+99891-328-88-38 nomerga telegramdan
yozishingiz yoki telegramdan jek567 izlab
telegramdan yozishingiz so'raladi.**

**Telegramda murojaatingizga o'z vaqtida
javob beriladi.**

**Tayyorlov guruhlariga yoz davri ertalabki
suhbat kartotekasini to'liq holda olish
uchun telegramdan yozing.**




Narxi: 15 ming so'm

Telegram kanalimiz:

@maktabgacha_tt

To'lov uchun: HUMO 9860230104973329

Plastik egasi Nabiye Zokirjon



DIQQAT!!!

**Bu hujjatni hech kimga tarqatmaslik
sharti bilan olishingiz mumkin.**

Sizga bu OMONAT qilib beriladi.

To'liq holda olganingizdan so'ng:

Faqat o'zingiz uchun foydalaning.

**Hech kimga bermang hattoki eng yaqin
insoningizga ham.**

Internet veb-saytlarga joylamang.

**Telegram orqali kanal va gruppalarga
tarqatmang.**

**OMONATGA HIYONAT
QILMANG.**